



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-oktabr

563-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Farmasevtika mahsulotlarining postmarketing nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 4-oktabrdagi 628-sonli shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 14-oktabrdagi 477-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Farmasevtika mahsulotlarining postmarketing nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 4-oktabrdagi 628-sonli shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 14-oktabrdagi 477-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Farmasevtika mahsulotlarining postmarketing nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 4-oktabrdagi 628-sonli shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 14-oktabrdagi 477-6-0-Q/24-sonli qarorlari asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda respublikaning farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21 yanvardagi PF-55-son Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi hududida vakolatli tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)”ga ega mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ishlab chiqargan dori vositalari va “ISO: 13485” sertifikatiga ega ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tibbiy buyum va tibbiy texnikani majburiy sertifikatlashtirish tartibi bekor qilinganligi;

mahalliy farmasevtika mahsulotlarining talablarga muvofiqligi postmarketing nazorati va ixtiyoriy sertifikatlashtirish orqali aniqlanishi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab farmasevtika mahsulotlarining postmarketing nazorati amaliyotga joriy etilganligi;

Farmasevtika mahsulotlarining postmarketing nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 628-son qarori ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**